

O'ZBEKISTON TELEVIDENIYESI TARIXINI ILMIY O'RGANISH ASOSLARI

Mahmudova Shoxista Alisher qizi

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute
2-bosqich "Teleoperatorlik" yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya. Maqolada televide niye tarixi, rivojlanish bosqichlari, ilmiy-ijodiy yangiliklar haqida so'z boradi. Televideniye o'zining tezkorligi, ta'sirchanligi, ommaviyligi va samimiyati bilan shuxrat qozondi. Ilm-fan, madaniy va ijtimoiy hayotda insonni shaxs sifatida kamol toptirish, ijtimoiy muammo va qarama-qarshiliklar oldida ongini shakllantirish, jamiyat oldida insonni mas'ulligini tarbiyalash televide niyenning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, televide niye kishini har tomonlama estetik talbiyalashda kuchli qurol vositasi ekanligini qayd qilish joiz.

Kalit so'zlar. Televide niye, oav, teleoperator, rejissyor, rassom, kamera, montaj. Journalist, ssenariy.

O'zbekistonda ilk marotaba televizion ko'rsatuvlar rasmiy ravishda efirga uzatila boshlaganiga 66 yildan oshdi. Televide niye shu yillar davomida laborotor izlanishlardan tortib to telekommunikatsion industriyaning rivojlanishigacha uzoq va mashaqqatli yo'l bosib o'tdi¹.

1956-yil «Toshkent televide niye studiyasi» tashkil etildi. Bu studiya o'z ko'rsatuvlarini 180 m balandlikdagi Toshkent televizion minorasi orqali ko'rsatdi. Ijodiy ishlari bo'yicha ilk direktor Mirsolih Mirag'zamov, texnik direktor Marziya Abdullayeva, rejissor Bobo Xo'jayev, operator Po'lat Rasulov, ilk diktorlar Iqbol Olimjonova, Yunona Stolyarova, Ra'no Madraximova edilar.

1957-yil Toshkent telestudiysi muntazam ravishda teledasturlarni kuniga 2–2,5 saat hajmda namoyish etishni boshladi. 1958-yil birinchi marotaba KTS (ko'chma televizion stansiya) yordamida teleko'rsatuvlarni voqeasodir bo'ladigan joydan, zavod va fabrika sexlari, xo'jalik dalalari va fermalari, ilmiy laboratoriylar va boshqa joylardan olib ko'rsatish imkoniyati yaratildi.

1959-yildan boshlab Toshkent telemarkazining ko'rsatuvlarni tarqatish doirasi kengaydi. Shu yili Samarqand shahri aholisiga, 1960-yil Buxoro, Navoiy viloyatlarining katta hududidagi aholiga ko'rsatuvlarni yetkazib berish imkoniyatlari kengaytirildi. 1961-yil Urganch shahrida (Xorazm viloyati) telemarkaz ishga tushirildi. 1962-yil O'zbekiston televide niyesining ikkinchi Respublika dasturi ish boshladi.

1962-yil Telemarkaz Respublika Aloqa vazirligi ixtiyoridan «Televide niye va radioeshittirish Davlat Komiteti» tasarrufiga o'tkazilganligi to'g'risida O'zbekiston Oliy Sovetining qarori chiqdi.

1964-yil Nukus shahrida (Qoraqalpog'iston Respublikasi) mahalliy telestudiya ish boshladi.

1965-yildan Respublika Markaziy televide niyesining 1-dasturi (ST-1) ko'rsatuvlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, O'zbekiston televide niyesi 3 ta dastur orqali teleko'rsatuvlarni tarqata boshladi. 1979-yildan O'zbekiston televide niyesi Markaziy televide niyenning 2-dasturi (ST-2) ko'rsatuvlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, jami 4 ta dastur orqali teleko'rsatuvlarni namoyish eta boshladi.

1970-yil O'zbekiston televide niyesi bazasida televizion badiiy va hujjatli filmlar hamda film-konsertlar ishlab chiqaruvchi mustaqil «O'zbekteofilm» studiyasi tashkil etildi.

1971-yil Toshkent telemarkazining texnikaviy va ijodiy imkoniyatlari yanada kengaydi. Shu yili Telemarkaz rangli tasvirda teleko'rsatuvlar tayyorlashga o'tdi.

1978-yil rangli tasvirda ko'rsatuvlarni tayyorlash va efirga uzatishga mo'ljalangan yangi televizion texnik markaz ishga tushirildi. Telemarkaz «Perspektiva» rusumidagi 3-avlod zamонави studiya teleuskunulari bilan jihozlangan bo'lib, ularning tarkibi dasturlarni videoplyonkaga yozib olish hamda ko'rsatuvlarni to'g'ridan to'g'ri efirga berish uchun sahni 300 kv. metrli va 600 kv. metrli 2 ta studiya, 2 ta apparat-studiya

¹M.Maxammetov, Sh. Atamuradova Televide niye va radio rejissurasi Toshkent 2017

bloki (ASB), teledasturlarni efirga uzatish uchun apparat-programma bloklari (APB), tasvirni magnit lentasiga yozish apparatxonalar, video va ovoz yozish ko'chma stansiyalari (KTS) bilan jamlandi.

O'zbekiston televideniyesining imkoniyatlari 1980-yilda ishga tushgan yangi telemarkaz hamda 1985-yilda o'rnatilgan ko'p dasturli radiotelevizion uzatuvchi stansiya tufayli yanada oshdi. Yangi teleminoraning balandligi 375 metr bo'lib, u Toshkent telemarkazining ko'rsatuvarlari tarqatishni 2 barobarga oshirdi. Natijada, videosignal lar sifati yaxshilanib, teleko'rsatuvarlar soni ko'paydi. Bu davrga kelib, texnik bazani rivojlantirish uchun «Sony» firmasining televizion texnik vositalari xarid qilindi.

1990-yilga kelib respublika aholisining 98 foizi ikki programmada teleko'rsatuvarlari ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Televideniye jamoaviy san'at va bu dargohda ijod qiluvchi operatorning o'mi beqiyosdir. O'zbek television ekran san'atining asoschilaridan Po'lat Rasulov "O'zbekfilm" kinostudiyasining kinooperatori, Feruz Alimov "O'zbekfilm" kinostudiyasining mashxur operatorlaridan, kinoxronikadan Karim Maqsudxodjayev, Kim Gim Nyan, Zoxid Hamidov, Nig'mat Inog'omov, Marat Muslimov, A.Voxobov, V.Panov, D.Azimov, N.Sagdullayev, T.Sodiqov, A.Ismoilov bo'lib hizmat qildilar. Ular Kinemotografiyadan televideniyega kirib kelishdi va O'zbek ekran san'atini cho'qqilarga ko'tarishgan.²

Dastlab nafaqat televideniyeda teatr spektakllari to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatilgan, balki spektakllar atay televideniye povilionlarida televideniye uchun maxsus yozilgan ssenariylar asosida badiiy asarlarni saxnalashtirgan holda tasvirga olingan.

Teatr spektakllarini telespektakllariga moslashtirish uchun talaygina ijodiy guruh ter to'kgan. Bir spektakl ustida redaktor, rejissyor, operator, ovoz rejissyori, saxnalashtiruvchi rassom bilan birgalikda hamjixat ishlagan holda teleasarlarni tomoshabin honadoniga olib kirishga muvafaq bo'lingan. Turli kasb vakillari va turli soha ijodkorlarining "birdamliligi" televideniye orqali ijodiy ishlarining ekranlarda namoyish etilishi televideniyening ishonchli manbaa ekanligini ta'minlab bergan.³

50-yillar O'zbek televideniyesining shakllanish davri bo'lgan bo'lsa, 60-yillarda ijodkorlar televideniyening texnik imkoniyatlarini chuqur o'zlashtirishgan, xalqimiz talab-istiklariga mos televideniye yaratishga ham erishdilar. Qadim Sharq donishmandligi zamirida paydo bo'lgan ko'rsatuvarlar tayyorlashga bo'lgan izlanishlar "Otalar so'zi aqlning ko'zi"(1962), "Televizion miniatyuralar teatri"(1963) singari o'zbek oynai jahoning eng mashxur ko'rsatuvari dunyoga kelishiga sabab bo'ldi.

1975-yil ko'rsatuvarlarning videotasmaga yozib olinishi, 1977-yil rangli televideniyening ishga tushishi televideniye imkoniyatlarini yana bir pog'onaga ko'tardi. Televideniyeda badiiy asarlarni ekranlashtirishning katta imkoniyatlari mavjudligi va uning mahoratli ijodkorlar tomonidan puxta egallangani "Yoshlik" studiyasi ijodkorlari tomonidan yaratilgan yetti qismdan iborat "Qutlug'qon" (1977y.) videofil'mida o'z aksini topdi. "Qutlug'qon" o'zbek televideniyesi tarixida ilk video filmi bo'lib, teleasar nafaqat "Yoshlik" studiyasi, balki televideniyeda yangi ijodiy jarayonlarning boshlanishiga asos soldi⁴

Televideniyening muhim vazifasi tasvirni bir manziladan turib ikkinchi manzilga uzatishdan iborat va bu ixtiro 1800-yildan to hozirgi kunga qadar o'z mojizasini ko'rsatib kelmoqda. Televideniye o'zining tezkorligi, ta'sirchanligi, ommaviyligi va samimiyligi bilan shuxrat qozondi. Televideniye kishini har tomonlama estetik tarbiyalashda kuchli qurol vositasidir. Televideniye uchun kerakli bo'lgan mutaxassislar O'zbekiston Davlat San'at va madaniyat institutida 1991-yildan buyon professor A.Ismailov tomonidan tashkil etilgan "Kinoteleoperatorlik" yo'nali shida o'zbek kinosining taniqli namoyondalari jalb qilinib, talabalarga soha sirlarining ijodiy-nazariy va amaliy tomonlama ta'lim berib kelmoqdalar.

2011-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat muassasalarini yosh mutaxassislar bilan ta'minlash to'g'risida"gi Farmoniga asosan kafedra mudirligi yosh mutaxassis, iste'dodli kinooperator-kinorejissyor kafedra dotsenti I.Meliqo'zievga ishonib topshirildi. Shu kunlargacha "Kinoteleoperatorlik" yo'nali shini tamomlagan talabalar turli xil ko'rik tanlovlarda o'z ijodiy ishlari bilan olyi o'rinnlarni olib, o'z yutuqlari bilan o'zbek kinosi kelajagi ulkan o'zgarishlar tomon ketayotganini ko'rsatib kelmoqdalar.

² A.I.Ismoolov Kinoteleoperatorlik mahorati Toshkent 2004

³ Национальное телевидение в социокультурном пространстве: Теория и практика- Телеоператорское мастерство, 95-96

⁴ Ilmira Raxmatullaeva Jannat makon jurnali: Zangori ekran yoki navoiy ko'chasidagi 69-uy -fevral

Televideniye texnik yangilik sifatida kinemotografiyadan kechroq paydo bo‘lgan va albatta voqelikni aks ettirish san’atida kinemotografiyaning ijodiy uslublaridan foydalangan⁵. San’atning bu ikki turi- kino ekrani va televizor monitoring to‘rtburchak ramkasi bilan bog‘liq. Kino va televideniye tomoshabin bilan tasvir yordamida gapplashadi. Demak, operator ishining sifatiga qo‘yilgan yuqori talablar va uning mukammal kasbiy tayyorgarligiga bo‘lgan extiyoj tushunarli va tabiiydir. Ikki ijodiy elementning munosabatlariga qaramasdan, televideniye operatorining ishi o‘ziga xos hususiyatlarga ega. Asosiy farqlardan biri- ishlab chiqarish texnologiyasi va suratga olishning ba’zi xollarda jamoaviy (ko‘p kamerali) usulidadir. Yana bir ajralib turadigan eng muhim hususiyat voqealarning bir laxzada yoritilishidadir. Ma’lumot suratga olingan harakat bilan bir vaqtda xonadonlarga kiradi va tomoshabin o‘zini voqealarning joyida bo‘lgandek xis qiladi, shu bilan birga ekranada sodir bo‘layotgan voqealarga guvoh bo‘li, hamardlik bildiradi. Teleoperator va kino operator ishidagi bu farqlar televideniye rivojlanishining dastlabki bosqichida, hali videoyozuv mavjud bo‘lmagan va suratga olish “jonli efirda” aniq ko‘ringan. Avtotnom kameralar va videokameralarning paydo bo‘lishi bilan bu farqlarning chegaralari asta sekin yo‘q qilindi kinoteleoperatori videofilmlar, teledasturlarni ishlab chiqarishda to‘liq huquqli muallifiga aylandi.

Professional operator kinokameraning ramkasiga reallikni joylashtirishidadir. Teleoperator kadrlashda ko‘proq erkinlikka ega chunki u kino operatori kabi film chegarasi bilan bog‘lanmaydi. Lekin, bu ijodkorlikning texnik hususiyatlariga tegishlidir. Ijodiy nuqtai nazardan, teleoperator ham kinooperator ham to‘laqonli va asarning tasviriy qismini yagona yaratuvchisidir. Har qanday television asarni yaratishda – u yangilik, hikoya, dastur, yoki film bo‘ladimi ijodiy jamoa ishtirok etadi: ssenariy muallifi rejissyor, sharxlovchi, operator va boshqalar. Teleoperator ko‘pincha kimningdir rahbarligida ishlashiga qaramay, tomoshabin aynan operator his qilgan va kamera orqali yozib olgan narsani ekranada aniq ko‘radi. Film yoki dastur tasvirining muallifi teleoperator ordir, bu esa telemahsulotning badiiy sifatini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun operatorlik kasbi televideniye yetakchilardan biridir. Tasvirga olishning fotokimyoviy va elektron usullari o‘rtasidagi raqobat uzoq muddatli allaqachonlar tugadi. Bugungni kunda ular bir-birini mukammal ravishda to‘ldiradigan yagona texnologik tizimga muvaffaqiyatli birlashtirganlar. Tasvirdagi fotokimyoviy analog sifatini deyarli yoqotmasdan raqamli videoga qaytarildi. Eng yangi texnoligiyalardan foydalanish kompyuter yordamida taxrirlash imkonini beradi, bu juda qulay va samaralidir. Tasmalarga yoziladigan tasvir bilan taqqoslanadigan zamonaviy yuqori aniqlikdagi raqamli kameralar sifatli tasvilarni ishlab chiqarishga qodir. Hozirgi kunda televideniying ko‘p kameralarda tasvirga olish uslubi kinoda ham muvaffaqiyatlari qo‘llanilib, aktyorlar uchun taqsimlangan rol ijrosiga ko‘nikish imkonini beradi, va tasvirning ishlab chiqarish vaqtini qisqartiradi.

Operatorning kasbiy ta’limi ikkita parallel yo‘nalishda rivojlanadi. Bir tomonidan operator ma’lum darajadagi texnik bilimga ega bo‘lishi kerak va bu yuqori texnoligiyali television uskunalarani takomillashtirish bilan rag‘batlantirildi. Boshqa tomonidan, u yuqori darajadagi badiiy -estetik madaniyatga ega bo‘lishi kerak. Bu ikkala yo‘nalish operatorning ijod qilish jarayonida bir-birini to‘ldiradi.

Televizion kanallarning zamonaviy amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, teleoperator voqelikni tasvirga olishda muallif sifatida ishlaydi. O‘z fikri va uslubiga ega operator biringa hujjatlari filmni tasavvur qilib tasvirga olsa va kompyuter dasturlari yordamida taxrirlay olsa, bu uning mualliflik kinosi hisoblanadi.

Teleoperatorning ishi murakkab uskunalarda tasvirga olish bilan bo‘liq bo‘lib, bu holat bo‘lajak operatorlarni doimiy ravishda takomillashtiriladigan optika, elektronika, tasvirga oluvchi va yordamchi kamera uskunalari kabi texnik fanlarni yanada qunt bilan o‘rganishga majbur qiladi.

Teledasturlarni suratga olishda turli o‘lchamdagisi zamonaviy yoritish moslamalari, relsli va puflama aravalari, katta va kichik kranlar, tasvirni meyyorlashtiruvchi tizimlardan foydalangan holda operator o‘z ijodiy go‘oyalarini amalga oshirishida tasvir jilovdorligini boyitadi.

Televideniye oddiy hikoyalardan to murakkab sahnalashtirilgan dastur va yirik loyihalarni suratga olishgacha bo‘lgan ko‘p janrli san’atdir. Shuning uchun bo‘lajak operatorordan har tomonlama professional tayyorgarlik va yuqori ta’lim darajasini talab qilinadi. Sahnalashtiruvchi operator teledasturlarning majoziy ifodaliligi, kadrlar kompozitsiyasi, yorug‘lik, rang, tasvirga olish texnikasi, tasvirning dramaturgi k g‘oya bilan bo‘liqligi va umuman tasvir sifati uchun javobgardir.

⁵ <https://pandia.ru/text/80/488/15526.php>

Teleoperatorlik mahorati turli miqyosdagi va turli janrlardagi teledasturlarni tasvirga olishda ijodiy yaratuvchanlik faoliyati zaruriy bo'lgan shartlardandir.

Ko'p yillar televide niyeda ishlagan rus operatori Sergey Medinskiy operatorlarning ishi haqida shunday deydi: "Hujjatli film operatori tayyorgariksiz tasvirga oladi. U o'z tasvirlari haqida o'ylashi va bir vaqtning o'zida tasvirga olishi kerak. U ssenariy g'oyasini ko'rinaradigan holatga aylantiradi, turli hodisalar ning o'sha laxzalarini tasvirga olish uchun tanlaydi, bu personajlarning kinemotografik faktlar modelini va harakterini yaratishga imkon beradi. Bunday vazifa atrofdagi voqelikning fotografik nushasi emas, balki g'oyaning obrazli ifodasidir. Hujjatli film rejissurasi bilan to'qnash kelgan operator kamera texnikasining eng boy arsenalidan foydalanadi. Ular dramaturgiya elementlarini ijodiy tarzda gavdalantiradi".

Teleoperatorlik ko'p qirrali kasb bo'lib, tasviriy san'at, undan rejisyorlik va ssenariy asoslarini puxta egallashni talab qiladi. Bu kasb mashaqatli va ijodiy kasb: Operator butun umri davomida uning nozik tomonlarini hisobga olishi lozim.

Xulosa o'mida shuni eslatib o'tish joizki, televide niye bu kichik ekran san'ati, yirik plan san'ati ekan. Insonning yuzi, ko'zi, kayfiyati, ruhiyati tomoshabin uchun qiziq. Televide niye umumiy, cheksiz planlarni uncha yoqtirmaydi, uning ko'lami, ta'siri o'zgacha. Katta ekranda ko'rilgan jang sahnalarining ta'siri kichik ekranda ko'rilgan tomosha ta'siridan farq qiladi.

Televide niye eng ommaviy tasviriy axborot uzatuvchi vositadir. Har kuni televide niye dasturlarini dunyoda millionlab, milliardlab odamlar tomosha qilishadi. Axborotning ta'sirchanligi bo'yicha boshqa ommaviy axborot vositalari televide niyega teng kela olmaydi. Televide niye bilim, yangilik, badiiy musiqa sport, ko'ngilochar va boshqa ko'rsatuvlarni tomosha qilish imkonini beradi. U tezkor voqe va hodisalardan tomoshabinni bevosita shohid qiladi. Teleoperator bu hususiyatlarni inobatga olgan holda o'z ustida ishlashi, imkoniyatlaridan keng foydalanib ma'suliyatni zimmasiga olgan holda ijod qilishi joiz, har bir kadrni tasvirga olayotganida bir honadonga kirib tomoshabin tarbiyasida his tuyg'ularida masul ekanligini unutmasligi joizdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 2016 yil, sentyabr.
2. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
3. "Oynai jahon fidoyilar" M. Karimov. "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent 2009-yil. 166b.
4. "Televide niye asoslari" M.Muhammedov. "Voris-nashriyot" Toshkent 2009-yil. 150b.
5. Axmedov B. "O'zbek televizion kinosining rivojlanish tarixi", –T.: "Akademiya", 2007 y.